

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA ADABIYOT ORQALI YOSHLAR TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sattorov Ilhomjon

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi" yo'nalishi, 1 -bosqich talabasi

Sobirova M.A

Ilmiy rahbar: prof.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasini takomillashtirishda o'sib kelayotgan yosh avlodning g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirishda milliy g'oya, ma'naviyat va adabiyotning o'rnini, ularning xos xususiyatlari va muhim jihatlari bilan bog'liq dolzarb masalalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *milliy g'oya, ma'naviyat, adabiyot, yoshlar tarbiyasi, g'oyaviy salohiyat, ma'naviy salohiyat, g'oyaviy yetuklik ma'naviy yetuklik.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль национальной идеи, духовности и литературы в повышении идеологического, духовного и морального потенциала растущего молодого поколения, их характеристики и важные аспекты совершенствования образования молодежи.*

Ключевые слова: *национальная идея, духовность, литература, образование молодежи, идеологический потенциал, духовный потенциал, идеологическая зрелость, духовная зрелость.*

Abstract: *This article analyzes the role of national ideas, spirituality and literature in increasing the ideological, spiritual and moral potential of the growing young generation, their characteristics and important aspects of improving the education of young people.*

Key words: *national idea, spirituality, literature, youth education, ideological potential, spiritual potential, ideological maturity, spiritual maturity.*

KIRISH

O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish suv va havodek zarur. Zotan bugungi yoshlar ertangi kunning rahbarlari, olimlari, ustozlari va ota-onalaridir.

XXI asr shiddati o'sib kelayotgan yosh avloddan nafaqat bilimli bo'lishni, balki, ma'nan yuksaklik, g'oyaviy savodxonlik, ogohlik, hushyorlik, teran mulohazakorlik va mushohadakorlikni talab etadi. Demak bugun ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy tarbiya zarurati har qachongidan ham dolzarb. Zotan, tarixiy tajribamiz ham shuni ko'rsatmoqdaki, aniq maqsadni ko'zlagan, ishonchli g'oya bilan qurollangan xalqgina jahon siyosiy maydonida o'z o'rniga ega bo'la oladi. Har bir mamlakatda fuqarolar,

ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni teran idrokli, ilmli, zukko, chuqur mushohadali, o'z tarixi, buyuk ajdodlari, moddiy va ma'naviy boyliklaridan faxrlanuvchi, Vatanidan g'ururlanuvchi, fidoyi, Vatan himoyasiga mudom tayyor turuvchi, o'z mustaqilligini asrovchi inson sifatida tarbiyalash uchun ham ishonchli va kuchli g'oya zarur. Ayni paytda jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati ham yosh avlodning g'oyaviy va ma'naviy salohiyatini har tomonlama oshirishni talab etmoqda. Biz barpo etayotgan yangi jamiyatda shakllanayotgan milliy g'oyaning asosiy maqsadi ham har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir(4).

O'z o'rnida g'oyaviy jihatdan yetuklik ma'naviy yetuklik ehtiyojini keltirib chiqaradi. Yoshlarning o'z tarixi, ilm-fani, qadriyatlarining tub mazmun va mohiyatini anglab yetishi uchun ularga ma'naviyat sabog'i zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"(2).

Milliy g'oya, ma'naviyat tushunchalarining tub mohiyatini yoshlar teran anglab yetishida yana bir omilning alohida o'rni bor. Bu – so'z orqali insonning his-tuyg'ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega bo'lgan adabiyot omilidir. Inson o'zining insonligini tushunib yetishida, o'zini o'zi sarhisob qilishida, oq bilan qorani, yaxshi bilan yomonni, ezgulik bilan yovuzlikni farqlay olishida adabiyotning juda katta xizmati bor. Bugungi behisob axborotlar olamida insoniyat boshiga tushayotgan mislsiz fojialarga ma'lum ma'noda ozmi-ko'pmi adabiyotdan uzoqlashish sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism: Yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, ma'naviy barkamol, mustaqil fikrleydigan va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qiladigan insonlar qilib tarbiyalashda milliy g'oya, ma'naviyat va adabiyot omillarining har biri muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, milliy g'oya yoshlarning o'z tarixi, tili, urf-odatlar va qadriyatlariga hurmat bilan qarashiga yordam beradi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik hissini shakllantiradi.

Milliy g'oyaning o'ziga xosligi shundaki, uning eng ezgu maqsadi – yetuk ma'naviyatli, ma'rifatli shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. Zotan, Vatanga, xalqiga muhabbatli odamgina yetuk ma'naviyatli, ma'rifatlidir. Ma'rifatli odam o'z erkini boshqalar erki bilan birga deb biladi, o'zgalarning yashash tarzi, e'tiqodi, huquqini hurmat qiladi. O'z o'rnida "...milliy g'oya – milliy rivojlanish lokomotivi. Turgan gap, bunda davlatchilik g'oyasi, davlat va uning rahbariga hurmat, milliy davlat salohiyati bilan faxrlanish ham muhim o'rin tutadi. "Bu – mening xalqim, bu – mening Vatanim", deb faxrlangan odam "Bu – mening davlatim" deb ham faxralana olishi kerak. Davlat bir organizm sifatida o'zini takomillashtirib, demokratik jamiyatni tashkil etuvchi kuch sifatida har doim millat ravnaqiga rahnamo bo'lib turadi"(4. 92-93)

Milliy g'oya yoshlarni Vatanga sadoqatli, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi hamda ularni jamiyat oldidagi burchini anglashga undaydi. U yoshlarning

qalbida birlik, fidoyilik va kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. Mustahkam milliy g'oya yoshlarni begona va zararli mafkuralarga ergashib ketishdan saqlaydi. Ayniqsa, internetdagi yolg'on targ'ibotlarga tanqidiy fikr bilan qarash yoshlarning ongli bo'lishiga yordam beradi.

Milliy g'oya kuch-quvvat, g'oyaviy yetuklik, harakat manbai bo'lsa, ma'naviyat insonning ichki dunyosini boyituvchi omil. Ma'naviyat orqali yoshlarga halollik, adolat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlar singdirilib, ular xarakterining mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishiga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir. Moddiy narsalar insonga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xosdir(3). Ma'naviyatning ilk o'chog'i oiladagi tarbiya muhitidir. Agar oilaviy ma'naviyat, tarbiya yaxshi shakllangan bo'lsa, ota-ona o'zi ham bunga amal qilsa, bola hech qachon ota-onasi yomon deb o'ylagan yo'lga yurmaydi. Ma'naviyatli insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Ma'naviyat yoshlarni rostgo'y, kamtar va hurmatli bo'lishga o'rgatadi. Ota-onaga hurmat ko'rsatish, kattalarga salom berish, yolg'on gapirmaslik kabi ma'naviyat belgilarini yoshlar oilada o'rganadilar. Kuchli ma'naviyat yoshlarni zararli odatlar va noto'g'ri yo'llardan saqlaydi.

Ma'naviy jihatdan yetuk tarbiya olgan yoshlar giyohvandlik, zo'ravonlik yoki internetdagi zararli g'oyalarga berilib ketmaydilar. Ma'naviyat yoshlarni komil inson qilib tarbiyalaydi, ularni ezgulikka yetaklaydi va jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Yoshlar tarbiyasidagi eng muhim omillardan yana biri adabiyot omili bo'lib, u yoshlarni ma'naviy yetuk, bilimli va komil inson qilib voyaga yetkazadi. Adabiyot insonning qalbi, tafakkuri va dunyoqarashini boyitadi. Badiiy asarlar orqali yoshlar yaxshilik va yomonlikni ajratishni, odob-axloq qoidalarini, insoniy fazilatlarini o'rganadilar.

Adabiyot mehribonlik, halollik, vatanparvarlik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Masalan, Alisher Navoiyning asarlarida adolat, ilm va insonparvarlik g'oyalari targ'ib qilinadi. Uning qahramonlari yoshlarni ezgulikka chorlaydi. Ko'plab she'r va romanlar yoshlarni yurtni sevishga undaydi. Jumladan, Abdulla Oripovning Vatan haqidagi she'rlari yoshlar qalbida milliy g'urur va faxr tuyg'usini kuchaytiradi.

Badiiy asarlar inson hayotidagi turli voqealarni tasvirlaydi va xulosa chiqarishga yordam beradi. Bunga birgina misol qilib Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini olaylik. Ushbu asar mutolaasi orqali yoshlar muhabbat, sadoqat va millat taqdiri haqida chuqur tushunchaga ega bo'ladilar.

Kitob o'qigan insonning so'z boyligi ortadi, fikrini ravon ifodalash qobiliyati kuchayadi. Bu esa yoshlarning ta'lim va hayotdagi muvaffaqiyatiga yordam beradi. Hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo'layotgan, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda

bartaraf etish, shu yo'lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda adabiyotning o'рни va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Milliy g'oya, ma'naviyat va adabiyot orqali yoshlar tarbiyasini takomillashtirish uchun oila, maktab va jamiyat birgalikda harakat qilishi kerak. Yoshlarning ongida ezgulik, vatanparvarlik va ilmga intilish tuyg'ularini shakllantirish muhimdir. Buning uchun ta'lim muassasalarida bilim olayotgan yoshlar o'rtasida olib borilayotgan g'oyaviy tarbiya jarayonlarida quyidagilarga e'tibor qaratilish lozim :

- eng avvalo yoshlarni milliy g'oya bilan qurollantirish;
- hayot hodisalarini , dunyoviylik , ilmiylik qoidalari asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish;
- buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishga tayyorlash zarur;

- yoshlarni kitobxonlik tadbirlariga , qiziqarli zakovatlar hamda intellektual o'yinlarga jalb etish;

- tariximizdagi ulug' siymolar va davlat arboblari hayoti va o'tmishiga nazar tashlagan holda, xuddi ulardek bo'lishlariga intilish tuyg'ularini mujassamlashtirish;

- yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni uyg'otish , shu kabi turli xil harbiy paradlar, ko'riklarga jalb etish, shuningdek harbiy sport musobaqalarini ko'proq yo'lga qoyish lozim.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, milliy g'oya, ma'naviyat va adabiyot yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashning muhim vositalaridir. Ularni to'g'ri va samarali qo'llash jamiyatning kelajak taraqqiyotini ta'minlaydi. Bularning barchasi yoshlarimizning bunyodkor g'oyalarini mustahkamlashga, san'at adabiyat va fanlarga bo'lgan qiziqishini orttirishga, bilim ko'nikmalarini o'zlarida yanada chuqurroq o'zlashtirishiga, Vatanga bo'lgan mehrini, muhabbatini oshishiga va eng asosiysi yoshlar ongida mafkuraviy bo'shliq yuzaga kelishini oldini olishga hamda begona yod g'oyalarni ongida shakllanishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3160, 28 iyul 2017 yil. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2018-yil, 30-iyul.

2. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir/ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi materiallari//Xalq so'zi. 2021 yil, 20 yanvar.

3. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 yil.

4. Sobirova M.A, Absattorov B.M. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2024 yil.